

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA TASHKILIY-
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Kiyomov Abdulla Xaytaliyevich

Termiz davlat pedagogika instituti.

Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ОРГАНИЗАЦИОННО-
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

Киёмов Абдулла Хайталиевич

Термезский государственный педагогический институт. Старший

преподаватель кафедры технологического обучения

**THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND ORGANIZATIONAL-
PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF TECHNOLOGICAL
COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS.**

Kiyomov Abdulla Khaytalievich

*Termez State Pedagogical Institute. Senior lecturer in the Department of
technological education.*

Annotatsiya: *Maqola bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlariga bag'ishlangan. Unda bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari o'rganib chiqilgan. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari haqidagi olimlarning tadqiqotlari natijalari tahlil qilingan va muallifning bu muammoga qaratilgan shaxsiy fikrlari bayon qilingan.*

Аннотация: *Статья посвящена теоретико-методологическим основам и организационно-педагогическим условиям формирования технологической компетентности у будущих педагогов. В ней изучены теоретико-методологические основы и организационно-педагогические условия формирования технологической компетентности у будущих педагогов. Проанализированы результаты исследований ученых о теоретико-методологических основах и организационно-педагогических условиях формирования технологической компетентности у будущих педагогов и изложены личные мысли автора по данной проблеме.*

Abstract: *The article is devoted to the theoretical and methodological foundations and organizational and pedagogical conditions for the formation of technological competence among future teachers. It examines the theoretical and methodological foundations and organizational and pedagogical conditions for the formation of technological competence among future teachers. The results of scientists' research on the theoretical and methodological foundations and organizational and pedagogical conditions for the formation of technological competence among future teachers are analyzed and the author's personal thoughts on this problem are presented.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, texnologik kompetentlik, bo'lajak pedagogning texnologik kompetentligi, texnologik kompetentlikni shakllantirish, nazariy metodologik asoslar, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar.*

Ключевые слова: *компетентность, технологическая компетентность, технологическая компетентность будущего педагога, формирование технологической компетентности, теоретико-методологические основы, организационно-педагогические условия.*

Key words: *competence, technological competence, technological competence of the future teacher, formation of technological competence, theoretical and methodological foundations, organizational and pedagogical conditions.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni va 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari oldiga juda mas'uliyatli vazifalarni yuklagan. Bu vazifalar ijrosini ta'minlashda mamlakatimizda shakllanib ulgurgan uzluksiz ta'lim tizimida xususan oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirgan, ijodkor mutaxassislarni tayyorlashga alohida urg'u berilib buning uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish muhim metodologik masalalardan biri hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishda bir necha muhim metodologik yondashuvlarga tayaniladi. Quyida bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslarini tashkil etuvchi ana shunday metodologik yondashuvlarning ayrimlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Pedagogikadagi metodologik yondashuvlar-o'qitish yoki tarbiyalash strategiyasini belgilovchi tamoyillar yig'indisidir. Umuman, oliy ta'lim

muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarni texnologik tayyorlash vazifalariga muvofiq ularning texnologik kompetentligini shakllantirish muammolarini kompleks hal qilish uchun, eng avvalo quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak: pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va chuqurlashtirish; psixologik-pedagogik, texnologik tasavvurlarini kengaytirish; bo'lajak pedagoglarning ijodiy fikrlashini va olingan bilimlarini amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish; mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish, innovatsion, ijodiy, texnologik ixtirochilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash; amaliy faoliyat jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlash.

Metodologiya (yunoncha *methodos* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tadqiqot yo'li, bilish nazariyasi degan ma'nolarni anglatadi) 1) nazariya va faoliyatni tashkil etish va o'tkazish tamoyillari va usullari tizimi; 2) bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot; fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogika fani metodologiyasi-bilish tamoyillari, metodlari va jarayonlar hamda pedagogik mavjudlikni qayta o'zgartirish haqidagi ta'limotdir. Aynan metodologiya jarayon yoki hodisani eng to'liq o'rganishga imkon beradi, shuning uchun hozirgi zamon ta'limining nazariy muammolari bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi va kompetentlikni rivojlantirish sohasidagi tadqiqot metodologiyasi va metodlarini ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq.

Metodologiya-bu ilmiy bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, turli sohalarda nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish tamoyillari, uslublari va vositalari sifatida namoyon bo'ladi. Demak, "nazariy-metodologik yondashuv" atamasi muayyan muammoni turli nuqtai nazardan qarash va echish uchun bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalarni o'rganish hamda qayta ishlash tamoyillari va metodlari tizimini anglatadi.

Ta'limga texnologik yondashuv ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatida texnologik kompetentlikning ahamiyatini belgilab beradi. Shu bois, biz uchun har bir mumkin bo'lgan natija asosiy emas, balki bo'lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining tashkil etuvchilaridan biri-texnologik kompetentlikni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu bizning tadqiqotimizda kompetentlikka asoslangan yondashuvdan foydalanishga imkon beradi. Bu esa, bizning fikrimizcha, oldingi uch yondashuv bilan birgalikda eng yuqori natijaga erishish imkonini berishi lozim. Demak, tizimli yondashuv bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayonining tizimli xususiyatlarini o'rganishga va talab qilinadigan pedagogik tuzilmani-bizning holatda, texnologik kompetentlikni shakllantirish modelini yaratishga imkon beradi, lekin bu texnologik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini taqdim etishga asos bo'ladi, degani emas. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'lim sub'ektlarining birgalikdagi muvaffaqiyatli harakatlarini aks ettiruvchi model mazmuni uni faoliyatga asoslangan yondashuvi bilan to'ldirish lozimligini anglatadi. Ammo tizim elementlarining birgalikdagi umumiy faoliyati va faoliyatga asoslangan yondashuv bo'lajak pedagoglarda shakllantiriladigan kompetentlik xususiyatlarini aniqlashga, ya'ni texnologik kompetentlik mazmunini

to'liq ochib berishga imkon bermaydi. Aynan ana shundan kelib chiqqan holda, bizningcha, tizimli va faoliyatli, texnologik yondashuvlarni umumiy qo'llagan holda kompetentlikka asoslangan yondashuvni ham joriy etish maqsadga muvofiq.

Quyida bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlik shakllantirish modelini qurish uchun zarur nazariy-metodologik yondashuvlar va pedagogik shart-sharoitlar haqida so'z yuritamiz.

Umumiy ilmiy daraja sifatida bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish muammosini har tomonlama o'rganishni ta'minlaydigan va bu jarayonni pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradigan tizimli yondashuv tanlandi. Tizimli yondashuv deganda ob'ektlarni tizim sifatida o'rganishga asoslangan ilmiy bilimlar va ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishi tushuniladi. O'z navbatida, tizim muayyan ketma-ketlikda tartiblangan, bir-birlari o'zaro bog'langan va o'ziga xos yaxlit birlikni tashkil etuvchi elementlar to'plami sifatida belgilanadi [4].

Ilmiy bilish metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv ilmiy faoliyatning deyarli barcha sohalarida qo'llaniladi. Xususan, tizimli yondashuvning pedagogik talqini V.П. Беспалько[3], Н.В. Кузмина[8], В.А. Сластенин[9] va boshqalarning ilmiy ishlarida aks etgan.

Tizimli yondashuv-asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan yondashuvlardan biridir. U ob'ektlarni tizim sifatida ko'rib chiqishga asoslangan ilmiy bilimlar va ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishidan iboratdir. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayoni pedagogik tizimning bir varianti sifatida qaralishi mumkin va shunday ko'rib chiqilishi kerak. Buning bizga imkoni bordek tuyuladi, chunki bizning fenomen pedagogik jarayonning amalga oshirilishi bo'lib, ijtimoiy institut doirasida o'rganiladi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan. Uning tashkil etuvchilari maqsad, mazmuniy-tashkiliy, prosessual-texnologik va nazorat-baholash bloklaridan iborat bo'lib, bo'lajak pedagoglarning tajribasi shakllanadigan bilimlari, ko'nikmalari va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatleri tufayli boyib boradi. Ma'lumki, ma'lum bir funksional tarkibiga nisbatan yopiq bo'lgan har qanday qismi tizimning tashkil etuvchisi hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan bloklar biz ishlab chiqadigan modelning tashkil etuvchilari deb hisoblaymiz, chunki ular maqsad va mazmun mustaqilligiga va funksional bir xillikka ega.

Dastlab bo'lajak pedagoglarining texnologik kompetentligini shakllantirish jarayonini faoliyatli yondashuv nuqta nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

Faoliyatli yondashuv-texnologik faoliyatning turlariga nisbatan pedagogik munosabat va rivojlangan ma'naviy dunyo, o'ziga xos shaxsiy va kasbiy sifatlar, shaxsiy qobiliyatlar, texnik va badiiy ijodkorlik vositalari va natijalari, axloqiy-estetik rivojlanish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuvni joriy etish ta'lim samaradorligini oshiradi, bo'lajak pedagoglarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi, shaxsiy va kasbiy sifatllarni rivojlantirishi uchun, o'qishga, hamkorlik qilishga, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga safarbarligi va tayyorligi

uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Faoliyatiy yondashuv bo'lajak pedagogning texnologik kompetentligini shakllantirishning asosi hisoblanadi va metodik faoliyat tizimida uning ijodiy sohasini ochishga imkon yaratadi. Faoliyatiy yondashuvni joriy etish bo'lajak pedagoglarning jamoa va guruh bo'lib ishlashlarida zarur bo'ladigan texnologik bilim va kasbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Nazorat, baholash, maqsadlarni aniqlash, guruh ishida o'quv topshiriqlarini birgalikda va mustaqil ravishda bajarishi samaradorligi yanada ortadi. Bo'lajak pedagoglarning birgalikda bajaradigan guruh ishlarini tashkil qilish boshqalarga ta'lim berish vazifasini amalga oshirish, o'quv faoliyatini o'z-o'zini boshqarish funksiyalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Ilg'or pedagogik amaliyotga oid didaktik g'oyalar va metodologik izlanishlar tahlili OTMdagi ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan umumnazariy asosga ega faoliyatiy yondashuvni taqdim etadi [5].

Faoliyatiy yondashuv asosida o'qitish tamoyillardan biri bo'lajak pedagoglarda axborotlar mazmuni haqida ko'rgazmali tasavvur hosil qilishdan iborat. Chunki ko'rgazmalilik muhim didaktik tamoyillardan biri hisoblanadi. Faoliyatiy yondashuv doirasida o'qitish jarayonining metodologik asosi bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning g'oyaviy mazmunini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning mohiyati, tuzilishi va samaradorligi pedagogika fani va amaliyotining eng dolzarb masalalari hisoblanadi. Pedagogik faoliyatni ilmiy tahlil qilish har bir pedagogning ijodiy yondashuvining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat modellarini tahlil qilish va qurishda tizimli yondashuv tamoyillarini qo'llash eng istiqbolli hisoblanadi [5].

Ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlashda texnologik yondashuvni keng joriy etish, ularga chuqur va har tomonlama asosli bilim berish bilan birga ularni keng qamrovli ijodiy fikrlashga, mustaqil bilim olishga o'rgatish, amaliy ko'nimalarini rivojlantirish, ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quv jarayonini faollashtirish, texnologik yondashuv tamoyillariga asoslanib ta'limni optimallashtirish imkonini beradi.

Texnologik yondashuvni ta'limga joriy etish deganda faqat o'qitishning texnik vositalari yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tushunilmaydi, balki ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, shart-sharoitlarni shakllantirish, metod va vositalarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligini baholash orqali ta'lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqish nazarda tutiladi [4].

Pedagogika fanida "yondashuv" tushunchasi etakchi ilmiy g'oya sifatida ko'rib chiqiladi va u ta'lim jarayonini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan, texnologik yondashuv ta'lim muammolarini hal qilish uchun o'qitish texnologiyalarini loyihalash va qo'llash sifatida qaraladi. Texnologik yondashuvning o'quv jarayonida texnologiyalarni loyihalash va qo'llashga asoslangan asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: gnostik (ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlarni va belgilarini bilish); konseptual (ta'lim texnologiyalarining mohiyatini

ochib berish va o'ziga xosligini aniqlash); konstruktiv (o'quv amaliyoti uchun yangi texnologiyalarni loyihalash va yaratish); prognostik (ta'lim amaliyotida turli strategiyalar, yo'nalishlar, texnologiyalarni qo'llash uslublari va metodlari). Demak, ta'limga texnologik yondashuv «texnologiya» tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, sub'ektlarning ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan harakatlari tizimi sifatida izohlanadi.

Ammo ilmiy va o'quv-metodik adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim texnologiyasini ta'riflash borasida ilmiy munozaralar hali ham davom etmoqda. Ta'lim texnologiyasining o'qitish metodikalaridan farqi borasidagi fikrlar juda munozarali masalalardan hisoblanadi. Shunga qaramay, ko'pchilik mualliflar ta'lim texnologiyasi didaktikaning kafolatlangan yutug'ini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini eng maqbul tarzda tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liqligini e'tirof etadilar. Bundan kelib chiqadiki, o'qitishga texnologik yondashuv ta'lim jarayonini shunday loyihalashni nazarda tutadiki, bunda berilgan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, pedagogning zarur o'qitish texnologiyalarini amaliy qo'llashi asosida didaktik maqsadlarga erishish kafolatlanadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga qator yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Biroq bu borada hali hal etilishi lozim bo'lgan bir qancha muhim muammolar borki, ular pedagogik olimlarimizning zimmasiga ulkan mas'uliyatlar yuklaydi. Bizningcha, texnologiya-bu o'zida o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini jo qilgan va yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik faoliyatdir" yoki "pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)ga muayyan sharoitda va ma'lum ketma-ketlikda ta'sir etish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir" [4].

Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo'llashning o'ziga xos jihatlari nimadani iborat degan savol tug'ilishi tabiiydir. Texnologik ta'lim tizimining o'ziga xosligi shundaki, o'quvchilar nazariy va amaliy darslarda bevosita ishlab chiqarishning "jonli" ob'ektlari bilan ish ko'radilar. Bu ob'ektlar ta'lim muassasalarining ixtisoslashganligiga bog'liq holda tasniflanadi. Bo'lajak pedagoglar ta'lim jarayonida ishlab chiqarishga oid u yoki bu texnologiyalarning tuzilmasi, zaruriy jihozlarning tuzilishi, ishlash prinsiplari, yaratilayotgan mahsulotga qo'yilgan texnik (agrotexnik) talablar, ish jarayoni mazmuni, amallarni bajarish ketma-ketligi, nazorat turlari bilan chuqur tanishadilar. Demak, bu erda texnologiyalarning "o'rgatish texnologiyasi" haqida gap boryapti. Bu texnologiya o'quvchilarning abstrakt tafakkurini tezkor holatda amaliyotga ko'chirish bilan baholanadi. Bo'lajak pedagog texnologik jarayonni amaliy mashg'ulotlarda kuzatadi, keyingi bosqichlarda (ishlab chiqarish ta'limida) esa "mutaxassis" sifatida uni boshqaradi va nazorat qiladi. Ana shu faoliyatning maqsadga muvofiqligini ta'minlash bu tizimda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalardan kutilgan asosiy natija bo'lishi kerak [6].

Pedagogik texnologiyalarni tasniflashda ba'zi olimlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini hisobga olishadi. Shu boisdan reproduktiv, evristik va ijodiy faoliyatga oid pedagogik texnologiyalar mavjudligini e'tirof etishadi. Rus olimi G.K.Selevko texnologiyalarni tasniflashda birmuncha chuqur, har tomonlama yondashadi va ularni: 1) qo'llanish darajasi; 2) falsafiy asosi; 3) ruhiy rivojlanishning etakchi omillari; 4) o'zlashtirish nazoratlari; 5) shaxsga yo'naltirilganlik; 6) mazmun va tuzilish; 7) tashkiliy ishlar; 8) bilim faoliyatini boshqarish; 9) bolaga yondashish; 10) ustuvor metodlar; 11) mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari; 12) tahsil oluvchilar toifasi bo'yicha turlarga bo'ladi [5].

Pedagogik texnologiya prinsiplaridan biri "egiluvchanlik" hisoblanadi. U pedagogik texnologiyaning qo'llanish sohalarini ta'lim mazmuni hajmiga mos holda birmuncha kengaytiradi. Gap shundaki, u yoki bu mavzu bo'yicha loyihalangan texnologiya hech bo'lmaganda fan bo'limlari chegarasida egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Bunda pedagogda fan mavzulari bo'yicha didaktik jarayon tuzilmasini tashhisli, maqsadga muvofiq tarzda almashtira olish yoki qaytadan qurish imkoniyati mavjud bo'ladi. Egiluvchanlik prinsipi asosida loyihalangan yaxlit pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta'lim tizimi uchun qo'l keladi. Bu erda fan dasturi mavzulari bo'yicha o'quv elementlari va ularning mazmuni hajmi jihatdan o'zgaradi, xolos. O'qitish texnologiyasining eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: diagnostik maqsadga muvofiqlik; samaradorlik; algoritmik; loyihalash imkoniyati; boshqaruvchanlik; tuzatish kirtishimkoniyati; vizuallashtirish. Ta'kidlash joizki, pedagogikada texnologiyalashtirish jarayoni ta'limda texnika vositalarini, so'ngra pedagogik texnologiyalarni o'quv amaliyotiga joriy etish hisobiga keng tarqalmoqda.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnologik kompetentlikni shakllantirish muammosini hal qilishga qaratilgan quyidagi asosiy qoidalar shakllantirildi:

1. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayoni ularning umumiy kasbiy tayyorgarligi tizimining quyi tizimi hisoblanadi.

2. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayonini pedagogik tizim xususiyatlariga ega bo'lgan model sifatida tasavvur etish mumkin.

3. Texnologik kompetentlik bitiruvchining integral kasbiy sifati bo'lib, u sanoat texnologiyalari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, metodlari, vositalari, faoliyat shakllari va ularni qo'llash, tashkil etish shart-sharoitlarini bilish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Bitiruvchining bu integrati kasbiy sifati ijodiy, loyihalash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zlashtirish qobiliyati, analitik ko'nikmalar va o'z faoliyati natijalarini tahlil etish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi [6].

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitishning asosi-ta'lim maqsadlari va natijalarini belgilovchi, amaliyotga yo'naltirilgan texnologik kompetentlik sifatlarini shakllantirish kompetentlikka asoslangan yondashuv orqali amalga oshiriladi.

Kompetentli yondashuv o'z mazmunida bugungi kunda ta'limda yuz berayotgan innovatsion jarayonlarni mujassam etadi. U rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan ta'lim standartining umumiy konsepsiyasiga muvofiq bo'lib, ta'lim mazmunini qayta qurish va uning sifatini nazorat qilish tizimiga, ya'ni kompetentlik tizimiga o'tish lozimligini ko'rsatadi. Kompetentlilik nuqtai nazaridan yondashuv ta'limni takomillashtirish asoslaridan biridir. Bugungi kunda faqat u yoki bu texnologik operatsiyani bajarish ko'nikmalaridan iborat bo'lgan kasbiy mahorat emas, balki kasbiy mahorat, ijtimoiy axloq, jamoada ishlash qobiliyati, tashabbuskorlik kabi kasbiy va shaxsiy sifatlar yig'indisidan iborat bo'lgan kompetentlilik talab etiladi [5].

Kompetentlik-bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki, ulardan kerak vaqtda samarali foydalana bilish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ularni qo'llay olish demakdir.

Bu ma'noda kompetentlik bo'lajak pedagogning tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga uning samarali kasbiy faoliyatga qodirligining tavsifladi va ta'limga kompetentli yondashuvning asosini tashkil etadi.

Kompetentlik-bu bo'lajak pedagoglarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallanganligi va ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik bo'lajak pedagoglarning shaxsiy sifatlarini ifodalaydi; kasbiy sohaning asosiy talablarini izohlaydi. Kompetentlik bo'lajak pedagoglarning alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakat elementlarini o'zlashtirishini nazarda tutadi. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning amaliy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kompetentlik ularning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullarini maqsadga muvofiq holda qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Bizning nuqtai nazarimizcha, texnologik ta'lim jarayonida kompetentli yondashuvni tatbiq etish-bu, eng avvalo, ta'limni va uning natijasini mehnat bozori talablariga moslashtirishga urinishdir. Texnologik ta'lim tizimiga kompetentli yondashuvni joriy etish bo'lajak pedagoglarni tayyorlash mazmunini sifat jihatdan o'zgartirishga olib keladi. Boshqacha aytganda, kompetentli nuqtai nazardan yondashuvdan asosiy maqsad umumiy va maxsus kompetensiyalarni to'liq egallangan, texnologik ta'lim sohasining etuk (kompetentli) pedagoglarni shakllantirishdir. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik oliy ta'lim muassasalari ta'limiy faoliyatining asosiy natijasi hisoblanadi [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 йил 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarori

3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.

4. Киёмов А.Х. [Бўлажак педагогларнинг технологик компетенлигини шакллантириш](#). Касб-ҳунар таълими. Илмий-услубий, амалий, маърифий журнал. Тошкент -2020. № 3.Б. 27-31.

5. Киёмов А.Х. [Узлуксиз таълим тизимида бўлажак педагогларда технологик кўникмаларнинг шаклланиш жараёнларини моделлаштириш](#). Касб-ҳунар таълими. Илмий-услубий, амалий, маърифий журнал. Тошкент -2020. № 3.Б. 63-68.

6. Kiyomov A.X. [Bo‘lajak texnologik ta’lim pedagoglarining kompetentligini shakllantirish tizimi](#). Tafakkur ziyosi. 2021/12.№4. B. 17-21 Jizzax.

7. Киёмов А.Х. [Таълим муассасасининг инновацион фаолиятида педагог технологик компетентлигининг ривожланиши](#). Жамият ва инновациялар. 2021/7/15. 2. 6/S. Б. 324-330.

8. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В. Кузьмина. – М.: Высшая школа, 1990. – 117 с.

9.Сластенин В.А. Личностно-ориентированные технологии профессионально-педагогического образования /В.А. Сластенин // Сибирский педагогический журнал. – 2008. -№1. – с. 49–74.